

## O'zbekiston va Afg'oniston Prezidentlari telefon orqali muloqot qildilar



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 10-fevral kuni Afg'oniston Islom Respublikasi Prezidenti Ashraf G'ani bilan telefon orqali muloqot qildi.

Ikki tomonlama munosabatlar va mintaqaviy hamkorlikning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi.

Prezident Ashraf G'ani davlatimiz rahbariga Afg'onistonda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash, ushbu mamlakat iqtisodiyotini tiklash masalalarida ko'rsatilayotgan har tomonlama ko'mak uchun birodar Afg'oniston xalqi nomidan samimiy minnatdorlik bildirdi.

Davlat rahbarlari O'zbekiston, Afg'oniston va Pokiston hamda yetakchi xalqaro moliyaviy institutlarning yuqori darajadagi vakillari ishtirokida o'tgan Transafg'on transport yo'lagini qurish loyahasini ilgari surish bo'yicha uch tomonlama ishchi guruhning birinchi yig'ilishi muvaffaqiyatli bo'lganini katta mamnuniyat bilan qayd etdilar.

Ushbu loyihani amalga oshirishni, shu jumladan texnik hujjatlarni tayyorlashni va qurilish ishlarini boshlash muhim ekani ta'kidlandi.

Prezidentlar sa'y-harakatlarni birlashtirib, yangi "Surxon - Puli-Xumri" elektr uzatish liniyasini barpo etish loyahasini amalga oshirishni jadallashtirishga kelishib oldilar. Shu maqsadda rejalashtirilgan ishlarning bajarilishini muvofiqlashtirishning ikki tomonlama mexanizmi yaratiladi, uning doirasida har oy videoanjumanlar o'tkazib boriladi.

Shuningdek, ko'p qirrali O'zbekiston-Afg'oniston munosabatlarini, shu jumladan neft-gaz tarmog'ida, ta'lim sohasida, texnik ixtisosliklar bo'yicha malakali afg'onistonlik kadrlarni tayyorlash borasida kengaytirish imkoniyatlari ko'rib chiqildi.

Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580-yiliga bag'ishlab joriy yil mart oyida Hirot shahrida o'tkaziladigan bayram tadbirlarida O'zbekiston delegatsiyasi ishtirok etishi yuzasidan kelishuvga erishildi.

Bo'lajak oliy va yuqori darajadagi tadbirlar va muloqotlar rejasi yuzasidan ham fikr almashildi.

Prezidentlar “Yo‘l xaritasi” va ustuvor investitsiya loyihalarining amalga oshirilishini doimiy monitoring qilish va samarali ilgari surish maqsadida qo‘shma hukumat guruhini shakllantirish topshirig‘ini berdilar.

O‘zbekiston va Afg‘oniston yetakchilarining telefon orqali muloqoti har doimgidek ochiq, konstruktiv va do‘stona muhitda o‘tdi.

***Manba***